

## QORAQALPOQ MUSIQA SAN'ATIDA ANVAR XUDOYBERGANOVNING QO'SHGAN HISSASI

**Qodirova Zilola Rajabboevna**

O'zbekiston davlat konservatoriysi Nukus filiali 3-kurs talabasi.

*qodirovazilola656@gmail.com*

*<https://doi.org/10.5281/zenodo.13797350>*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Amudaryo tumanidan yetishib chiqgan ustoz san'atkor Anvar Xudoyberganovning hayoti va ijodiy yo'li, erishgan yutuqlari, tumanimiz sanatiga, madaniy rivojlanishiga qo'shgan hissalari hamda kiritgan yangilik-o'zgarishlari, tarbiyalagan shogirdlari va bugungi kundagi faoliyati va qoraqalpoq musiqa san'atida qo'shgan hissasi haqidagi ma'lumotlar batafsil yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Ansambl, baxshi, musiqa, san'at, ashula, rags, doston, konsert, qo'shiq, truba, rubob, dutor, klarinet, tor, suvora.

## **KARAKALPAK IN THE ART OF MUSIC ADDITIONAL CONTRIBUTION OF ANVAR KHUDOYBERGANOV**

**Abstract.** In this article, the life and creative path of the master artist Anvar Khudoyberganov, who grew up from Amudarya district, his achievements, his contributions to the art and cultural development of our district, his innovations and changes, his students, his current activities and Karakalpak music information about his contribution to art is covered in detail.

**Key words:** Ensemble, bakhshi, music, art, song, dance, epic, concert, song, trumpet, rubob, dutor, clarinet, string, suvora.

## **КАРАКАЛПАК В МУЗЫКАЛЬНОМ ИСКУССТВЕ ДОПОЛНИТЕЛЬНЫЙ ВКЛАД АНВАРА ХУДОЙБЕРГАНОВА**

**Аннотация.** В данной статье рассказывается о жизни и творческом пути мастера-художника Анвара Худойберганова, выросшего из Амударьинского района, его достижениях, его вкладе в художественное и культурное развитие нашего района, его новациях и изменениях, его учениках, его нынешнем подробно освещается деятельность и каракалпакская музыка, о его вкладе в искусство.

**Ключевые слова:** Ансамбль, бахши, музыка, искусство, песня, танец, эпос, концерт, песня, труба, рубоб, дутор, klarinet, струна, сувора.

Bizning xalqimiz necha-necha asrlardan beri o'z buyukligini, o'ziga hosligini, madaniyatini saqlab, rivojlantirib kelgan. Ko'hna o'zbek zamini rivojiga ulkan hissa qo'shgan

buyuk allomalari, fozil-u fuzalolari, dunyoga mashhur shoirlari va hofizlari bilan ma'lum va taniqlidir. Yillar davomida ajdodlarimiz aqli ila ilm-fan, adabiyot bilan bir bir qatorda san'at va tasviriy san'at ham taraqqiy etib kelgan.

Yurtimizda qo'shiqchilik va raqs san'ati ajdodlarimizning hayotidan muhim o'rinni olganligi haqida ilk ma'lumotlar Avestoda ham borligini inobatga olsa, san'atimizning ildizlari nechog'lik teran va chuqur ekanligini anglashimiz mumkin.

Insonning shaxs sifatida shakillanishi ko'p jihatdan irsiy omillarga bog'liq deyishadi.

Shu bois, ayrim insonlarning alohida iqtidoriga baho berishganida ko'pincha: "qonida bor-da", degan e'tirofni eshitamiz. Ta'bir joiz bo'lsa, xushovoz xonanda, "Uchqun" ashula va raqs xalq ansamblи badiiy rahbari Anvar Xudoyberganovning ijro mahorati hususida ham san'atkoring muxlislari aynan shunday ta'rif berishadi.

Bu insonning san'atga ixlosi va qalbidagi jo'shqinlik, xatto ovoz tebranishlari ham huddi Alloh rahmat qilsin bobosi Murod baxshiga tortgan, - deya ta'riflagan edilar Anvar Xudoyberganovning ustozи, Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Gulmirza Nurmatov.

Axir dono xalqimiz ham bezizga "oqqan daryo oqaveradi", degan hikmatni yaratmaganlar.

Anvar aka Xudoyberganov ilk ashulasini aytib, ota- onasini xursand qilgnda hali juda kichkina, 5-6 yoshli bola edilar. Alloh rahmat qilsin ota-onasi Kamol ota bilan Mariyamjon ona tartib bergan oiladagi o'ziga xos ma'naviy-tarbiyaviy muhitda 7 nafar o'g'il qiz voyaga yetishgan. Oilada to'rtinchи farzand bo'lgan Anvar Xudoyberganov musiqa mакtabida tahsil oluvchi o'zining katta akasi bo'lmish Shomurod og'aning rubob cholg'uda ijro etayotgan kuylariga shunchaki havas qilib emas, balki o'ta qiziquvchanlik bilan ushbu cholg'u asbobini chalish sirlarini o'zi mustaqil ravishda o'rganadi. Undagi ixlos va intilishni ko'rgan Shomurod akasi musiqa mакtabida o'zi o'rganib kelayotgan nimaiki dars-mashg'ulotlari bo'lsa erinmay o'rgatib borar edilar. Uning intilish va harakatlaridan quvongan ota-onasi: "bobosiga tortga, kimsan, Murod baxshining chevarasi-da!" deya faxirlanar edilar.

O'z davrining taniqli sozanda va doston kuylovchi baxshilaridan bo'lgan Murod baxshining munosib avlodи Anvar Xudoyberganov 1964-yilning 24-fevral sanasida Mang'it shahrida tavallud topgan. U o'zining noyob iqtidori bilan o'quvchilik davrlaridayoq umumiyoт rta ta'lim mакtabida o'tkaziladigan barcha bayram va tadbirlarning doimiy ishtirokchisiga aylangan. Anvar Xudoyberganov umumiyoт rta ta'lim mакtabini tugatganidan keyin 1979-yilda Xorazm viloyati Urganch shahrida joylashgan Matyusuf Xarratov nomidagi musiqa bilim yurtining "Puflab chalinuvchi cholg'ular" bo'limiga o'qishga kiradi. O'z qiziqishlari tufayli qashqar rubobi, afg'on rubobi, tor, dutor singari milliy va sharq xalqlari sozlarida kuylar ijro etishni qoyilmaqom

uddasidan chiqar edi. Anvar Xudoyberganov ushbu bilim yurtida puflab chalinadigan musiqa asboblari turkumiga kiruvchi truba cholg'usi sir-asrorlarini 3 yil davomida mukammal o'rganadi.

U ushbu bilim dargohida o'qib yurgan davrlaridayoq 1982-yil Samarqand shahrida o'tkazilgan "O'zbekiston Respublikasi ijodkor-yoshlari ko'rik tanlovi"da ishtirok etib, o'zining klarnet asbobidagi ijrosi sababli faxrli 1-o'rinni olishga muyassar bo'lган. Mazkur bilim yurtini muvaffaqiyatli tamomlagach, 1983-yilda Toshkent Davlat madaniyat institutiga o'qishga kiradi. Institutdagi oliy ta'lim jarayoni, ustozlarining nazariy va amaliy mashg'ulotlari asosidagi talabchanligi, qolaversa, o'zining kamdan-kam odamlardagina kuzatiladigan o'tkir zehni va qobiliyati uning o'z mutaxasisligini puxta egallashi uchun imkon yaratdi. U ustozlarining maslahati bilan o'qish jarayonini bevosita o'z sohasi bo'yicha ish jarayoni bilan qo'shib davom ettirish maqsadida institut tahsilini sirtqi bo'limiga o'tkazadi.

Uning ushbu qarori institutta olgan bilimlarini ish jarayonida mustahkamlash, o'z sohasi bo'yicha tajribasini oshirishga yordam berdi. Hatto 1984-1986 yillarda sobiq ittifoqning Xabarovsk o'lka harbiy okrugi harbiy orkestrida xizmat burchini o'tagan Anvar Xudoyberganov o'z ijrolari bilan butun Xabarovsk o'lkasi bo'ylab harbiy orketining ijodiy gastrollarida ishtirok etdi.

Keyinchalik 1994-yildan buyon 8 yil davomida Amudaryo tuman Madaniyat uyi huzuridagi "Uchqun" ashula va raqs xalq ansambli musiqa rahbari lavozimida faoliyat yuritadi.

O'zining tashkilotchiligi, soha bo'yicha yuqori bilim va mahoratga ega ekanligini mehnat faoliyati jarayonida namoyon etgan Anvar Xudoyberganov 1994-yildan buyon hozirgi kunga qadar Amudaryo tuman Madaniyat markazi huzuridagi "Uchqun" ashula va raqs xalq ansambli badiiy rahbari sifatida xalqqa sidqidildan xizmat qilib kelmoqdalar.

Anvar Xudoyberganov repertuaridagi ashulalarning ko'pchiligiusroz Nazir Rahimov ijodiga mansub bo'lган san'at durdonalari bo'lib, Anvar ularni o'zining yuksak darajdagi ijrochilik mahorati bilan muxlislari qalbiga to'g'ri yetkaza olish maqomiga ega san'atkorlardandir.

Shu boisdan ham u 2006-yilda "O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 15 yilligi" ko'krak nishoni, Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi va tuman hokimligining bir necha "Faqxriy yorliq"lari, bilan taqdirlangan.

Har davrning o'z hofizi, o'z san'atkori bo'lgani kabi, har bir maktabning yetakchi ustozlari, yangi ijod uslublarini kashf qilayotgan umidli san'atkorlari ham bo'ladi. Bizning Amudaryo tumanimizning ham anashunday jonkuyar san'atkorlari qatorida Anvar Xudoyberganovning ham o'ziga yarasha mavqeyi va o'rni bor desam adashmagan bo'laman.

Anvar aka Xudoyberganov o'z faoliyati davomida ansamblga yosh, iqtidorli ijrochilarni jalb etish, ularning qobiliyatlarini rivojlantiris, ansamblning turli mazmun va shakillardagi ko'rik-

tanlovlarda muvaffaqiyatliishtirok etishi uchun tumanmadaniyat bo‘limi rahbariyati bilan samarali faoliyat olib bordi. Natijada “Uchqun” ashula va raqs xalq ansambl nafaqat Amudaryo tumanida, balki Qoraqalpog‘iston Respublikasi miqyosidagi davlat tadbirlarining ham doimiy ishtirokchisiga aylandi.

Xususan, Orol dengizining qurigan tubida yashil o‘rmonzorlarbarpo etayotgan ko‘ngillar, mexanizatorlarning madaniy dam olishini ta’minlash maqsadida 2019-yilda tashkil etilgan “Orol umidi” tadbirida badiiy jamoa o‘z kansert dasturi bilan ishtirok etib, Orol bo‘yi yashil makonini yaratishga munosib hissa qo‘shdilar. Bundan tashqari, shu yili Chimboy va Mo‘ynoq tumanlarida bo‘lib o‘tgan davlat tadbirlarida maxsus kansert dasturi bilan ishtirok etgan “Uchqun” ashula va raqs xalq ansamblining badiiy chiqishlari, ijrochilarning mahorat va yuksak madaniyati tadbirlar tashkilotchilari va xalqimiz e’tirofiga sazavor bo‘ldi.

Kata ijodiy jamoaga rahbarlik qilish, jamoaning har bir a’zosiga qobiliyati va ijro mahoratiga ko‘ra talablar qo‘yish, iqtidorli yoshlar bilan tizimliish olib boorish, ayniqsa, san’at sohasida anchayin murakkab jarayon. Ommaviy madaniyat unsurlari har qadamda xavf solib turgan bugungi tezkor zamonda ansamblfaoliyatini bir maromda yo‘naltirib turish rahbar zimmasiga kata ma’suliyat yuklaydi. Buni chuqur his qilgan Anvar Xudoyberganov ijodiy jamoada ustoz-shogirt an’analari asosida 30 nafar yosh ijrochilar bilan alohida shug‘illanishga, yoshlar o‘rtasida milliy-madaniy qadirylatlarni rivojlantirishga jiddiy e’tibor qaratadi. Shu bois, uning rahbarligidagi ijodiy jamoa Anvar Xudoyberganov rahbarligida o‘z faoliyati davomida ko‘plab ijodiy yutuqlar dohibi bo‘lgan. Xususan, Samarcand shahrining 2750 yilligi munosabati bilan “Samarcand sadolari” shiori ostida o‘tkazilgan ashula va raqs jamoalarining O‘zbekiston Respublikasi festivalida “Eng yaxshi xal cholg‘ulari jamoasi” yo‘nalishi bo‘yicha g‘oliblikni qo‘lga kiritgan bo‘lsa, 2011-yilda esa “Yagonasan, muqaddas Vatan!” Respublika ko‘rik-tanloving hududiy bosqichi g‘olib, ansamblning badiiy rahbari bo‘lmish Anvar Xudoyberganovning o‘zi esa “Cholg‘u ansamбли” yo‘nalishi bo‘yicha 2011-yilda bo‘lin o‘tgan Respublika havaskor jamoalari festivalining Qoraqalpog‘iston Respublikasi bosqichi g‘olib sovrindori bo‘ldi. O‘sha yili Navoiy viloyatida bo‘lib o‘tgan yana bir nufuzli festivalning qimmatbaho sovg‘alari hamda Diplomi bilan taqdirlangan.

A. Xudoyberganov ham nufuzli ijodiy jamoa rahbari, ham el sevgan san’atkor sifatida hamisha xalq bilan birga. O‘zi istiqomat qiladigan Arnabo‘yi mahallasida bo‘lib o‘tadigan xalq sayillari, to‘y va marosimlarda, avvalo mahalla faoli, qolaversa, ijrolari xalqqa manzur san’atkorlar oilasi sifatida hurmat va e’tibor qozongan. Bejizga mahalladoshlari Anvar Xudoybergenov oilasini “Oila – jamiyat tayanchi” ko‘rik-tanlovida g‘olib sifatida tanlashmagan.

“Ibratli san’atkorlar oilasi” yo‘nalishida g‘oliblikni egallagan Anvar Xudoyberganov oilasi haqiqatdan ham ibratga, e’tiborga munosibdir.

Nafaqaga chiqquniga qadar 27-sonli maktabda yoshlarga ta’lim-tarbiya bergen umr yo‘ldoshi Dilbarxon Bobojonova bilan 4 nafar o‘g‘ilni tarbiyalab voyaga yetkazishdi. Biri-biridan aqilli, o‘qimishli farzanlarningkattasi Sardorjon ham o‘z muxlislariga ega san’atkordir, Amudaryo tuman madaniyat markazi huzuridagi “Ofarin” folklore etnografik xalq jamoasi musiqa rahbari sifatida faoliyat yuritadi. Abrorjon esa fermer xo‘jaligida ishlash bilan birga mohir sozanda sifatida ham hurmaTiga ega kishilardandir. Kata o‘g‘il bo‘lmish Sardorbek o‘z ashulalari orqali muxlislari e’tiborini qozongan san’atkor bo‘lishi bilan bir qatorda tumanimizdagi 9-sonli Bolalar musiqa va san’at maktabida san’atsevar yoshlarimizga musiqa ilmidan saboq berib kelmoqda. Oilaning kenja farzandi Sanjarbek Xudoyberganov esa Shimoli-G‘arbiy harbiy okrug tasarrufidagi harbiy orkestrda xizmat qilib kelmoqda.

Anvar Xudoyberganov tom ma’noda san’atkorlar oilasining sardoridir. U ukase Shavkatjon va 4 nafar san’atkor o‘g‘illari bilan nafaqat Amudaryo tumanimizda, balki qo‘sni Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasining boshqa tumanlarida ham hamisha xalq xizmatidadir. Uning shaxsiy repertuaridan joy olgan “Suvora” va “Savti Suvora”, “Feruz-1”, “Feruz-2”, Noqisning “Dog‘man” kabi mumtoz-nasihatomuz ashulalari, xalq sevgan hofiz Komiljon Otaniyozov, Ortiq Otajonov, Otajon Xudoyskurovlar kuylagan badiiy yuksak ashulalari bugungi kunda xalqimizning ma’naviy mulkiga aylanib ulgurgan desam ham adashmagan bo‘laman.

Xalq xizmatlarida mendan “Onajon” qo‘srig‘ini ko‘p so‘rashdi, - shogirdi Murodjon Ibragimov kuy bastalagan “Onajon” ashulasi bilan ko‘pgina tanlovlarda g‘olib bo‘lganligini ko‘zlaridagi faxr tuyg‘usi bilan ifoda etadi Anvar aka Xudoyberganov.

Darvoqe, “Sog‘lom on ava bola yili” munosabati bilan “Otam – suyangan tog‘im, onam – mehr bulog‘i” Respublika ko‘rik tanlovida ustozimiz faxrli 3-o‘rinni egallaganlar, ko‘eik-tanlov yakunida oldingi o‘rinlar ijrochilari qolib, Anvar Xudoyberganovning “Onajon” ashulasi yana bir bora yangragan edi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va mamlakatimiz miqyosida kata sahnalarda o‘z ijro mahoratini muvaffaqiyatli namoyish etib kelayotgan el sevgan san’atkor Anvar Xudoyberganovning san’at-madaniyat sohasi rivojlanishiga qo‘shayotgan va qo‘shib kelayotgan ulkan hissalari davlatimiz tomonidan munosib e’tirof etilgan. Ma’sul tashkilotlar tomonidan faxriy yorliqlar, tashakkurnomalar va diplomlar taqdim qilinib, O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 15 yilligi ko‘krak nishono bilan ham taqdirlangalar.

Anvarjon bundan-da yuksakroq mukofotlarga munosib, -deydi ustozim, Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat hodimi ustoz san’atkor Gulmirza Nurmatov.

Ustozning shogirdga bo‘lgan ishonchi - munosib e’tirof etilishida, deyishadi. Biz esa chin ko‘ngildan yaxshi, yorug‘ niyatlar qilamiz; el sevgan xalqimiz ardog‘idagi san’atkor, salkam 40 yildan buyon o‘z qo‘shiqlari va kuy-navolari bilan Anudaryoliklar, shu bilan bir qatorda qo‘snni Xorazm viloyati hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasining boshqa tumanlarida ham o‘zining yuzlab muxlislariga ega san’atkor sifatida tanilgan Anvar Xudoyberganov bugungi kunda ham o‘z ish va ijodiy faoliyatini davom qildirib xalqimizning olqish va hurmatiga sazovor bo‘lib kelmoqdalar.

Hulosa o‘rnida shuni aytishni lozim topdimki Amudaryo tumanida iqtidorli san’atkorlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning iqtidorlarini namoyon etishlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar tufayli bugungi kunda nafaqat Anvar Xudoyberganovning o‘zi, bali u yetishtirgan shogirdlari orasida ham Qoraqalpog‘iston Respublikasi va O‘zbekiston miqyosida taniqli musiqachilar va iqtidorli yosh san’atkorlar talaygina. Hususan, “Nihol” mukofoti sovindori Moxira Bobojanova, “Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” Shuxrat Yusupov, Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist Ikromjon Siytimov, hushovoz honanda xalqimiz xizmatidagi san’atkor G‘ayratjon Yngiboyev, Shahnoza Matsafoyeva va Murodjon Ibragimovlar bugungi kunda xalqimizni o‘z san’atlari bilan bahramand etib kelmoqdalar. Shu kabi ustoz san’atkorlarimizning ijodiy faoliyatini va mehnatlarini qo‘llab quvatlash maqsadida tumanimiz tomonidan ular ishtirokida san’at ahli va san’atsevar yoshlarimiz bilan musiqa va san’at mакtablarida ijodiy uchrashuvlar hamda uchrashuv-kechalar tashkillashtirilib ular rahbarligidagi “Uchqun” ashula va raqs xalq ansamblı ishtirokida xalqimizga milliy- madaniy meroslarimizni yetkazib berish, qadim xalq kuylarimizni saqlab qolish maqsadida tumanimiz, respublikamiz bo‘ylab kansertlar tashkil qilinsa, xalqimizning madaniy va ma’naviy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatib, san’atga bo‘lgan muhabbatlarini yoshlarimizning esa musiqaga bo‘lgan qiziqishlarining ortishiga sabab bo‘lgan bo‘lar edi deb o‘layman.

## **REFERENCES**

1. Q.Z.Rajabboyevna, R.A.Allambergenovna “Amudaryo san’ati madaniyat tarixi va tarqqiyoti” Scintific approach to the modern education system ps.8-14. Vol. 3 No 26(2024)
2. Abatbaeva Rano Historical Image of" Alpamys" In Karakalpak Music (Example in the Works of Nazhimaddin Muhammeddinov) 2023/6/13 Best Journal of Innovation in Science, Research and Development 138-144 2-tom

3. Abatbaeva, R. "QORAQALPOQ MUSIQA SAN'ATIDA SYUITA JANRINING RIVOJI." *Вестник музыки и искусства* 1.3 (2024): 28-37.
4. GAIPOVA, Mohigul, and Rano ABATBAEVA. "BETAKROR OVOZ SOHIBASI BAG 'DAGUL JAQSIMURATOVA.' *Journal of Culture and Art* 2.3 (2024): 130-134.
5. Abatbaeva, R. "KOMPOZITOR NAJIMADDIN MUXAMMEDDINOV DÓRETIWSHILIGINDE ERTEK JANRÍ (Toǵız tońqildaq bir shińkildek ertegi tiykarında)." *Вестник музыки и искусства* 1.2 (2023): 46-51.
6. YO'LDASHEV, Abbos, and Rano ABATBAEVA. "USTOZIM NESIPBAY ALEKEEV TURSINBAEVICHNING IJODIGA BIR NAZAR." *Journal of Culture and Art* 1.3 (2023): 123-129.
7. Gulbahor, YO'LDOSHEVA, and Rano ABATBAEVA. "MUSIQA SAN'ATIDA DAMLI CHOLG'ULARNING AHAMIYATI." *Journal of Culture and Art* 2.3 (2024): 97-101.
8. Yo'ldosheva, Gulbahor, and Rano Abatbaeva. "QORAQALPOQ MUSIQA MADANIYATIDA MUSIQALI DRAMA JANRINING SHAKLLANISHI." *Modern Science and Research* 3.6 (2024).
9. Abatbaeva, R. "QORAQALPOQ MUSIQA SAN'ATIDA SYUITA JANRINING RIVOJI." *Вестник музыки и искусства* 1.3 (2024): 28-37.
10. Matimuratov, S. "QARAQALPAQ KÓRKEM ÓNERINDE XOSH HAWAZ BÚLBÚL TAMARA DOSHUMOVANÍN TUTQAN ORNÍ." *Вестник музыки и искусства* 1.3 (2024): 95-99.